

ALISHER NAVOIYNING “MAJOLIS UN-NAFOIS” ASARIDAGI TARIXIY SHAXSLAR

Shaxribonu Yo‘ldashboyeva

TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: yoldoshboyevashahribonu@gmail.com

Tel: +998931353106

Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD) Mahliyo Turdixo‘jayeva

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nafaqat turkiy xalqlarning adabiyotida balki, turkiy xalqlar tarixida ham muhim o‘ringa ega bo‘lgan Alisher Navoiyning eng yirik asarlaridan biri “Majolis un-nafois” asari va unda berilgan tarixiy shaxslar va haqida ma’lumot beriladi. Bunda tashqari asarda berilgan shaxslarning faoliyati haqida ham yoritiladi. Ayniqsa kitobning yettinchi majlis qismidagi temuriy shahzodalar va ularning faoliyati, sakkizinchi majlisda berilgan Husayn Boyqaroning faoliyati haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Majolis un-nafois, temuriy shahzodalar, Amir Temur, Husayn Boyqaro, Mironshox, Shoxrux Mirzo, Ulug‘bek Mirzo, Boysung‘ur Mirzo

ABSTRACT

This article provides information about Alisher Navoi’s work Majolis un-nafois, which occupies an important place not only in the literature of Turkic peoples but also in the history of Turkic nations. The article discusses the historical figures mentioned in the work and describes their activities. In particular, detailed information is given about the Timurid princes and their activities presented in the seventh chapter of the book, as well as about the activities of Husayn Bayqara described in the eighth chapter.

Keywords: Alisher Navoi, Majolis un-nafois, Timurid princes, Amir Temur, Husayn Bayqara, Miranshah, Shahrukh Mirza, Ulugh Beg Mirza, Baysunghur Mirza.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о произведении Алишера Навои «Мажолис ун-наfois», которое занимает важное место не только в литературе тюркских народов, но и в истории тюркских народов. В статье рассматриваются исторические личности, упомянутые в произведении, а также освещается их деятельность. Особое внимание уделено тимуридским

принцам и их деятельности, описанным в седьмом меджлисе произведения, а также деятельности Хусайна Байкары, представленной в восьмом меджлисе.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Мажолис ун-нафоис», тимуридские принцы, Амир Темур, Хусайн Байкара, Мираниах, Шахрух Мирза, Улугбек Мирза, Байсунгур Мирза.

KIRISH

Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, mutafakkir, adabiyotshunos va davlat arbobi, balki turkiy xalqlarning tarixchisi sifatida ham o‘z o‘rniga ega. Chunki uning asarlarida faqatgina she‘riyat va adabiyot emas, tarix ham o‘rin olgan. Shunday asarlardan biri “Majolis un-nafois” asari alohida ahamiyatlidir. Alisher Navoiyning ushbu asari turkiy xalqlar madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan durdona asar edi. “Majolis un-nafois” asari - o‘rta asrlardagi ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi oyna kabi asar. Ushbu asar jami 8 qismdan, yani 8 ta majlisdan iborat. Har bir majlisini shoirlarning yashagan davri, jamiyatdagi mavqeiga qarab taqsimlagan. Masalan, birinchi majlisda Alisher Navoiy o‘zidan oldingi davrda yashab o‘tgan shoirlar haqida, ikkinchi majlisda Navoiyning o‘zi bevosita uchrashgan shoirlar, uchinchi majlisda Navoiyning yaqin do‘stlari, to‘rtinchi majlisda turli fan sohasidagi olimlar, beshinchi majlisda Xuroson va uning atrofidagi olimlar, oltinchi majlisda Xuroson tashqarisi ya‘ni, Ozarbayjon va Iroq hududidagi shoirlar, yettinchi majlisda Temuriylar xonadonining vakillari va shahzoda shoirlar haqida va sakkizinchi majlisda Sulton Husayn Boyqaroning shaxsiyati va uning faoliyati haqida ma‘lumot berilgan¹. Alisher Navoiy o‘zining ko‘p asarlarida tarixiy haqiqatdan ko‘ra badiiy adabiylikka ko‘proq e‘tibor qaratgan. Lekin “Majolis un-nafois” asari ham tarixiy haqiqat, ham badiiylikni o‘zida jamlay olgan. Shu sababli ushbu asarni tarixiy jihatdan talqin qilishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi yettinchi va sakkizinchi majlislar tarix uchun eng muhim qismlaridir. Ushbu qismlar orqali Temuriylar davridagi ijtimoiy hayot, shoirlik faoliyati bilan shug‘ullangan temuriy shahzodalar, va Husayn Boyqaroning shaxsiyati va faoliyati haqida atroflicha ma‘lumot beradi. Navoiy asarning yettinchi majlisini Amir Temur shaxsidan boshlagan. Amir Temur Ko‘ragon - yirik davlat arbobi va sarkarda. Uning otasi Tarag‘ay bo‘lib, u barlos urug‘ining yirik zodagonlaridan bo‘lgan. Amir Temur temuriylar sulolasiga asos solib, Movarounnahr va Xurosondan tashqari Iroq, Eron, Ozarbayjon va Hindistonning shimoliy qismini o‘z ichiga olgan markazlashgan davlat barpo qilgan.

¹ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – T. 2024. – 600 b.

Navoiy o‘z asarida Temurning shaxsiyatiga yuksak baho beradi². Shu sababdan ham yettinchi majlisini Temur shaxsiyatidan boshlagan. Temurdan so‘ng uning o‘g‘li bo‘lgan Mironshoh haqida so‘z yuritib, uning Eron, Iroq va Ozarbayjon o‘lkalariga hokimlik qilganligi haqida aytadi. Shoxrux Mirzo haqida esa shunday deydi: “Sulton Shohrux Mirzo she‘r yozish bilan ko‘p shug‘ullanmas edi, lekin u zotdan ko‘plab chiroyli baytlar va chiroyli so‘zlar aytilgan. Buni qisqacha bir voqea bilan bayon qilamiz. Bu faqir Bobur Sultonning muborak tilidan shunday eshitdim: bir majlisda ulug‘ kishilarga qarab, Shohrux Mirzo haqida hikoya qilib aytdilar: ustod me‘mor Qivomiddin bir imorat masalasida e‘tiroz bildirgani uchun Shohrux Mirzo undan ranjib, uni bir yil xizmatidan chetlatgan ekan. Yil boshida Qivomiddin taqvim tuzib, “shu bahona bilan balki Mirzoning muborak yuzini ko‘rarman”, deb saroy eshigiga kelibdi. Vazirlarni vositachi qilib, taqvimni Mirzoga topshiribdi. Mirzo tabassum qilib, quyidagi baytni o‘qibdi:

“Tu kori zaminro naku soxti

Ki, bo osmon niz pardoxti.”

Shunday otadan (Amir Temurdan) bunday o‘g‘il tug‘ilishi ajab emas³”, deya ma‘lumot berib, Shoxrux Mirzoni bilimli va dono shaxs sifatida ulug‘laydi. Navoiy o‘z asarida Amir Temurnining she‘riyat bilan mashg‘ul bo‘lgan nabiralari haqida ham so‘z yuritadi. Xususan, Sulton Iskandar Sheroziy, Xalil Sulton va Mirzo Ulug‘bek singari nabiralari haqida aytib, ularni she‘riyat va tajnis⁴ san‘atida usta ekanligini aytadi. Xalil Sulton ko‘plab she‘riyat davrallarini o‘tqazgan. Hoja Ismatulloh⁵ uning devoniga qasida ham yozgan. Mironshoh o‘g‘li Xalil Sulton Navoiyning e‘tiroficha, yaxshi she‘rlar yozgan va sohibi devon bo‘lgan⁶. Mirzo Ulug‘bek shaxsiyati esa Navoiy tomonidan juda dono podshoh sifatida tasvirlangan. U Mirzo Ulug‘bekni Qur‘oni karimni yetti xil qiroatda yod bilganligini, astranomiya va matematika ilmini juda yaxshi egallaganini, hatto “Zij” asarini yozib, rasadxona qurdirgani haqida yozadi. Bundan tashqari temuriy shahzodalar orasida eng san‘atparvar, she‘riyatni sevuvchi shaxs sifatida Boysung‘ur Mirzoni ko‘rsatadi va ko‘plab xattotlar, naqqoshlar va shoirlar uning homiyligi bilan mashhur bo‘lganligi haqida aytadi. Amir Temurning nabiralari orasida she‘riyatga qiziquvchilar juda ko‘p bo‘lgan. Shunday nabiralardan biri Sulton Iskandar Sheroziy edi. U 7-8 yil

² Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – T. 2024. – B. 286.

³ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – T. 2024. – B. 288-289

⁴ Tajnis(arab. – o‘xshash, shaklan o‘xshash) – she‘riyatda ishlatiladigan badiiy san‘at turi bo‘lib, yozilishi yoki talaffuzi bir xil, ammo ma‘nosi har xil bo‘lgan so‘zlarni qo‘llash.

⁵ Xoja Ismatulloh(1365-1436) – to‘liq ismi Xoja Ismat Buxoriy, fors va turkiy tillarda qasida, masnaviy va g‘azallar bitgan shoir va adib.

⁶ G‘aniyeva S. Amir Temur va Temuriylar Navoiy nigohida// “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” – T. 2009. №28.

(<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/suyima-g-aniiyeva-amir-temur-va-temuriylar-navoiy-nigohida-2009>)

hukmronlik qildi. Biroq, shu vaqt ichida u shu qadar ko‘p xazina to‘pladiki, “3 xazina topib olgandek edi” - deb Navoiy unga o‘z asarida tavsif beradi. Bundan tashqari u tuyuq yozishda ham juda mahoratli shahzoda bo‘lgan.

Temuriylar sulolasining davomchisi bo‘lgan Bobur Mirzo juda kamtar, yaxshi xulq atvor egasi va saxiy odam bo‘lgan. Navoiyning aytishicha, U “Lamoat⁷” va “Gulshani roz⁸” juda ham yaxshi ko‘rgan va she‘r yozishni juda yaxshi ko‘rgan. Yana bir temiriy shahzodasi Abdulatif Mirzo bo‘lib, U biroz savdoyi fe‘lli odam bo‘lgan. Shohruxning o‘g‘li hisoblangan bu shahzoda garchi otasiga qarshi chiqqan bo‘lsa-da, she‘r yozishga qobilyatli inson bo‘lgan. Navoiy “Majolis un-nafois” asarida uning she‘rlaridan bir baytini keltiradi.

Bar dilu jon sad balo az yak nazar ovard chashm,
Chun biguyam shukri in, yo rab, nabinad dardd chashm⁹.

Temuriy shahzodalari orasida qobilyati va ilmi bilan tanilgan shahzodalardan yana biri Jahongir Mirzo edi. U ham she‘r yozishga qobilyatli shahzoda edi. Uning she‘rlari ko‘pincha maqtoov shaklidagi she‘rlardan iborat edi.

Amir Temurning farzandlari va nabiralarining ko‘p qismi har tomonlama salohiyatli edi. Ham she‘riyatda, ham siyosatda, ham ilmda yuksak salohiyatli shahzodalar bo‘lishgan. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari orqali aynan shunday tarixiy shahzodalar haqida ma‘lumot beruvchi manbadir¹⁰.

Navoiy asarining sakkizinchi majlisi Husayn Boyqaro shaxsiyati va uning faoliyatiga bag‘ishlanadi. Navoiy Boyqaroni Abulqosim Firdavsiyning “Shoxnoma”sining qahramoni Rustamga qiyoslaydi. Husayn Boyqaroni huddi Rustam singari muruvvatli va bahodir hukmdor ekanini aytadi. Bundan tashqari Navoiy Boyqaroni ham saxovatda, ham ilmda, ham shoirlikda xotam¹¹ deydi. U ko‘plab she‘riy anjumanlar tashkil qilib, atrofiga ko‘plab shoirlarni jalb qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois asari nafaqat adabiyot balki, tarix uchun ham ahamiyati katta. Asar o‘z davrining muhim tarixiy

⁷ Lamoat – XIII asr mutaffakiri Faxriddin Iroqiy tomonidan yozilgan ishq, insonning ruhiy poklanishi va sevgi haqida yozilgan asar

⁸ Gulshani roz(Sirlar gulshani) – Mahmud Shabustariy tomonidan yozilgan doston.

⁹ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – T. 2024. – B. 95.

¹⁰ G‘aniyeva S. Amir Temur va Temuriylar Navoiy nigohida// “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” – T. 2009. №28.

(<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/suyima-g-anliyeva-amir-temur-va-temuriylar-navoiy-nigohida-2009>)

¹¹ Hotam – Abusafona Hotam ibni Abdulloh ibni Sa‘di Toyi. Taxminan VI asr oxirlari - VII asr boshlarida yashagan arab shoiri. Xalq orasida Hotamtay nomi bilan mashhur. Uning bizgacha yetib kelgan bir qancha she‘rlarini to‘plab, arab adibi va xattot Rizqulloh Hassun 1872-yilda Londonda nashr ettirgan. Hotam haqida Sharqda juda ko‘p afsonalar va rivoyatlar, qissa va dostonlar mavjud. Hotam nomi saxovat ramziga aylanib ketgan. Bu yerda Navoiy Husayn Boyqaroni ham shoirlikda, ham saxovatda Hotamga o‘xshatadi.

manbasi hamdir. Uning kitobi orqali XV asrdagi ijtimoiy hayot, shoirlar va temuriy shahzodalarning faoliyati haqida ma'lumot olish mumkin. Asarda keltirilgan tarixiy shaxslar, ayniqsa temuriy shahzodalar va Husayn Boyqaro faoliyati orqali XV asrning siyosiy, madaniy hamda adabiy muhiti haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Navoiy ushbu asarda ijodkorlarning nafaqat adabiy salohiyatini, balki ularning jamiyatdagi o'rnini ham yoritib bergan. Shuningdek, "Majolis un-nafois" turkiy xalqlar adabiyoti va tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri bo'lib, undagi ma'lumotlar bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Asarda tilga olingan tarixiy shaxslar faoliyati orqali Navoiy davridagi ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvi masalalari haqida keng tasavvurlar hosil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – T. 2024. – 600 b.
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois (Mukammal asarlar to'plami, 13-tom) – Toshkent: Fan, 1997. – 600 b.
3. Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodologiyasi – Toshkent: O'qituvchi, 1970. – 300 b.
4. G'aniyeva S. Amir Temur va Temuriylar Navoiy nigohida // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" – T. 2009. № 28. (<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/suyima-g-anিয়েva-amir-temur-va-temuriylar-navoiy-nigohida-2009>)